O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi
№ 983
«29» 08 2022 y.

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlari prorektori
O.N.Bozorov
"29" 08 2022 y.

# XAVFLI ISHLAB CHIQARISH OBYEKTLARIDAN FOYDALANISHDA SANOAT XAVFSIZLIGI FANI SILLABUSI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 1000 000-Xizmatlar |
| Ta'lim sohasi: | 1020 000 - Gigiena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi |
| Magistratura mutaxassisligi: | 71020201–Mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar xavfsizligi (sanoatda) |

Qarshi-2022

**Tuzuvchi:**
Raxímov O.D, –"Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi professori

**Taqrizchilar:**
X.X. Razzakov – Samarqand davlat arxitektura va qurilish institui "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, dosent (turdosh OTM).

N.Maxmatqulov - Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasining 2022 yil 08 26 dagi 1 son yig'ilishida tasdiqlangan hamda,

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil 08 28 dagi 1 son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i** **SH.R.Turdiyev**

**Magistratura bo'lim boshlig'i** **O. X Eshqobilov**

**Kafedra mudiri:** **R.A.Eshonqulov**



**"Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanishda sanoat xavfsizligi" fani sillabusi**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Fan (modul) kodi**<br>TXV1208 | **O'quv yili**<br>2022-2023 | **Semestr**<br>3 | **ECTS krediti**<br>6 |
| **Fan (modul) turi**<br>asosiy | **Ta'lim tili**<br>o'zbek | | **Haftalik dars soati**<br>6 |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim** | **Jami yuklama** |
| **Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanishda sanoat xavfsizligi** | 90 | 90 | 180 |

**O'qituvchi haqida ma'lumot**

| **Kafedra nomi** | Ekologiya va mehnat muhofazasi | | |
|---|---|---|---|
| **O'qituvchilar** | F.i.sh. | Telefon nomeri | e-mail |
| **Ma'ruzachi** | Raximov Oktyabr Dustkabilovich | +998 97 3100588 | rahmat1959@mail.ru |
| **Amaliy mashg'ulot** | | | |
| **Laboratoriya mashg'uloti** | | | |

## I.Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga ishlab chiqarish obektlarining mazmun mohiyati, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan xavfli va zararli omillar, ulardan himoyalanish tadbirlarini ishlab chiqishga o'rgatishdan iboratdir.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ktlaridan foydalanishda sanoat xavfsizligi fani: inson-mashina-muhit tizimi tahlili, "Xavf" va "Xavfsizlik" tushunchalari, xavf turlari, xavfsizlik tizimi, xavfsizlik va barqaror rivojlanish, xavfsizlik insonnning asosiy ehtiyoji sifatida, zamonaviy ishlab chiqarish muhitida xavsizlikni ta'minlash, xavflarni yuzaga kelish sabablari va unda inson omilining roli, hayotiy faoliyat xavfsizligi aksiomasi, xavfsizlik va demografiya, inson va texnosfera, inson faoliyatida komfort sharoitlarni yaratish, xavfsizlikni ta'minlashning ergonomik va psixologik asoslari, texnosfera xavfsizligini boshqarish prinsiplari, metodlari va vositalari, boshqarishga tizimli yondashuv kabi masalalarni o'zlashtirishga zarur bo'ladigan nazariy va amaliy bilimlar bo'yicha bilim, ko'nikma va

malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – Xavfli ishlab chiqarish ob'ktlaridan foydalanishda sanoat xavfsizligi va uning prinsiplari, xavfsizlikni boshqarish shakllari va metodlari, ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar, ishlab chiqarish ob'ektlari xavfsizligi, sanoat xavfsizligini ta'minlash tizimi tarkibi, ekologik xavfsizlikni boshqarish, favqulodda vaziyatlar turlari hamda ulardan himoyalanish, FVlarda korxonalarning barqaror ishlashini ta'minlashga doir nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatishga, hamda belgilangan ishlarni amalda uddalashga doir malaka-mahoratni shakllantirishdan iborat.

## II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

« Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanishda sanoat xavfsizligi » fanini o'zlashtirish jarayonida magistratura quyidagilar bo'yicha nazariy **bilimga ega bo'lishi kerak:**

- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi magistratura ta'lim yo'nalishining DTS, malaka talablari hamda yo'nalish asosiy obektlari, ish faoliyati sohalarini;
- mehnat muhofazasining nazariy asoslarini, mehnat xavfsizliginiig o'ziga xos qonuniyatlarini, texnik me'yorlarini joriy qila olishni;
- mehnat muhofazasi bo'yicha davlat siyosati, mehnat muhofazasining huquqiy, tashkiliy va me'yoriy asoslarini;
- insonning fiziologiyasini bilgan holda mehnat sharoitlarni to'g'ri tashkil qilishni;
- jarohatga olib keluvchi zararli va xavfli omillarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni aniqlash va chora-tadbirlar ishlab chiqishni;
- ishlab chiqarish muhitida jarohatlovchi, zararli va xavfli omillarni aniqlay olishni;
- ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi, zararli omillar va ulardan himoyalanish yo'llarini;
- texnika xavfsizligi, elektr xavfsizligi, AKT texnik vositalaridan foydalanishda XT qoidalarini;
- yong'in xavfsizligini ta'minlash va yong'inni o'chirish, oqibatlarini bartaraf etish tizimlarini.

Quyidagilar bo'yicha **amaliy ko'nikmalar ortdirishi zarur:**

- uskunalarning ko'rsatkichlarini va salbiy ta'sir qilish darajasini me'yoriy talablarga mos kelishini nazorat qilish;
- jarohatlanishga olib keluvchi holatlarda himoya vositalaridan samarali foydalana bilish;
- ishlab chiqarish faoliyatida tozalikni ta'minlash va xavfsizlikni oshirish tadbirlarini ishlab chiqish;
- baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartiblarini;



- yong'inni o'chirish vositalari va texnik qurilmalaridan foydalanish, zarur bo'lganda yong'in oqibatlarini tugatish va qutqarish ishlarida amaliy ishtirok etish;
- elektr tokidan yoki boshqa jarohatlardan zararlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish ;
- fanni o'rgatish natijasida mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'in xavfsizligi bo'yicha zaruriy hisoblash ishlarini amalga oshirish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

## III. Ta'lim texnologiyalari va uslublari

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
-mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;
-mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollekviumlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resruslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

## IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

| № | Mavzular | Qisqacha mazmuni | soat |
|---|---|---|---|
| 1. | **1-mavzu. Kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Asosiy tushuncha va ta'riflar** | Xafli ishlab chiqarish ob'ektlari to'g'risida tushuncha. Asosiy tushuncha va ta'riflar. Sanoat xavfsizligi. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida sanoat xavfsizligini ta'minlashga oid huquqiy me'yoriy hujjatlar | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2. | **2-mavzu. Xavfli ishlab chiqaish ob'ektlari turlari va ularni baholash mezonlari.** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari turlari. Sanoat xavfsizligi va noxo'sh hodisalar. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridagi avariya inshootlar va (yoki) xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida qo'llaniladigan texnika qurilmalarining buzilishi, nazorat qilib bo'lmaydigan portlash va (yoki) xavfli moddalar ajralib chiqishi. | 2 |
| 3 | **3-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini hisobga olish va identifikatsiyalash** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari sanoat xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi vazifalari, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining davlat reestri | 2 |
| 4 | **4-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini hisobga olish va davlat reestrini yuritish tartibi** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini hisobga olish va davlat reestrini yuritishda Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining vazifalari, hisobga olish raqamini berish va zarur axborotni ma'lumotlar bazasiga kiritish, XIChO to'g'risidagi ma'lumotlarni davriy yangilash yoki uni Reestrdan chiqarish tartibi. | 2 |
| 5 | **5-mavzu. Sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish** | Mehnat muhofazasining ergonomik asoslari. Tizim faoliyatini kafolatlovchi muvofiqliklar. Mehnat muhofazasining psixologik asoslari. Xavfsizlik psixologiyasi | 2 |
| 6 | **6-mavzu. O'zbekiston Respublikasi sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi.** | Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining tuzilmasi, funksiyalari va vaziflari, huquqlari va javobgarligi | 2 |
| 7 | **7-mavzu. Sanoat xavfsizligi talablari** | Sanoat xavfsizligi talablari, qonunchilik hujjatlari va normativ texnik hujjatlarda nazarda tutilgan shartlar, taqiqlar, cheklashlar va boshqa majburiy talablar. | 2 |
| 8 | **8-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini loyihalash, qurish va foydalanishga** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatishni amalga oshirishga qo'yilgan talablar. | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | **qabul qilib olishga oid sanoat xavfsizligi talablari** | | |
| 9 | **9-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanishga oid sanoat xavfsizligi talablari** | xavfli ishlab chiqarish ob'ekti xodimlari shtatiga qo'yilgan talablar, xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi ishga oid malaka talablari, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari xodimlarining tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o'tkazish tartibi, ishlab chiqarish jarayoni ustidan nazorat qiluvchi zarur asboblar va tizimlarning belgilangan talablarga muvofiq mavjud bo'lishi hamda ishlashini ta'minlash. | 2 |
| 10 | **10-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ekti xodimlariga qo'yiladigan sanoat xavfsizligi talablari** | sanoat xavfsizligi sohasida tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o'tish tartibi, xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariya yoki noxush hodisa haqida tegishli shaxslarni xabardor qilish tartibi, xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yoki noxush hodisa yuz bergan taqdirda xodimlarning vazifalari. | 2 |
| 11 | **11-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uning oqibatlarini tugatish bo'yicha harakatlarga tayyorgarlik ko'rishga oid sanoat xavfsizligi talablari** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uning oqibatlarini tugatish tadbirlarini rejalashtirish hamda amalga oshirish tartibi. | 2 |
| 12 | **12-mavzu. Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati** | Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati maqsad va vazifalari, sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini o'tkazishga vakolatli organlar. | 2 |
| 13 | **13-mavzu. Xavfli** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | **ishlab chiqarish ob'ektida qo'llaniladigan texnika qurilmalarini sertifikatlashtirish.** | qo'llaniladigan texnika qurilmalari sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi jihatidan qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy sertifikatlashtirilish tartibi. | |
| 14 | **14-mavzu. Sanoat xavfsizligi sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash** | Sanoat xavfsizligi sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalashga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar. | 2 |
| 15 | **15-mavzu. Sanoat xavfsizligi ekspertizasi** | xavfli ishlab chiqarish ob'ektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatishga doir loyiha hujjatlari, xavfli ishlab chiqarish ob'ektida qo'llaniladigan texnika qurilmalari. xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi binolar va inshootlar, sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi va xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanish bilan bog'liq boshqa hujjatlar. Sanoat xavfsizligi ekspertizasini uni o'tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiyaga ega bo'lgan tashkilotlar vazifalari. Sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi. | 2 |
| 16 | **16-avzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi har bir avariyaning vujudga kelishi fakti bo'yicha uning sabablarini texnik jihatdan tekshirish maxsus vakolatli davlat organi vazifalari, tekshirish komissiyasi tarkibi va tartibi. | 2 |
| 17 | **17-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish bo'yicha davlat** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish bo'yicha davlat komissiyasi tuzish tartibi va vazifalari | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | **komissiyasini tuzish tartibi** | | |
| 18 | **18-mavzu. Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazorati** | Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirishda xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanuvchi tashkilotning vakolati va vazifalari ishlab chiqarish nazoratini tashkil qilishi va amalga oshirish tartibi. | 2 |
| 19 | **19-mavzu. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi** | Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini tuzishda xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanuvchi tashkilotning vazifalari, sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi | 2 |
| 20 | **20-mavzu. Sanoat deklaratsiyasini tuzishda xavfsizlik tahlil** | Xavfli moddalarning tavsifi, texnologiyalar va apparatni rasmiylashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha texnik yechimlarning tavsifi, xavfning tahlili ma'lum avariyalar tahlili, avariyalarnning kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlarining tahlili, avariyalar xavfini baholash | 2 |
| 21 | **21-mavzu. Sanoat deklaratsiyasida "Vaziyat rejalari" va "axborot varag'i" tarkibi** | "Vaziyat rejalari"da deklaratsiyalanayotgan ob'ektning tarkibi bo'yicha avariyaning mumkin bo'lgan va eng yuqori darajadagi muqarrar (namunaviy) ssenariysi zonalarining grafik tasviri, shuningdek joylashish zonalarini hisob-kitob qilish uchun boshlang'ich ma'lumotlar ko'rsatilgan holda ushbu ssenariylarning qisqacha tavsifi, "Axborot varag'i" ning maqsadi va vazifalari. | 2 |
| 22 | **22-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yuz bergan holda zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni** | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yuz bergan holda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik, majburiy sug'urta qilish tartibi, xavfli ishlab chiqarish ob'ekti xodimlarining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga zarar | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | **majburiy sug'urta qilish.** | yetkazgan holatlarda ish beruvchining javobgarligi. | |
| 23 | **23-mavzu. Sanoat xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik** | Sanoat xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslarning javobgarligi. | 2 |
| | Jami | | 46 |

**Amaliy mashg'ulotlar**

| № | mavzular | soat |
|---|---|---|
| 1 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini baholash | 2 |
| 2 | Xavf va xavfsizlik. Xavf turlari va tasnifi | 2 |
| 3 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash | 2 |
| 4 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari bo'yicha davlat reestrini yuritish tartibi | 2 |
| 5 | Sanoat xavfsizligi sohasini davlat tomonidan tartibga solish | 2 |
| 6 | Sanoat xavfsizligini amalga oshiruvchi vakolatli organ va uning tuzilmasi, funksiyalari,huquqlari va javobgarligi | 2 |
| 7 | Sanoat xavfsizligi talablari | 2 |
| 8 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini loyihalashga qo'yilgan talablar | 2 |
| 9 | Xavfli ishlab chiqarish oyu'ektlarini qurish va foydalanishga qabul qilib olishga oid sanoat xavfsizligi talablari | 2 |
| 10 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanishda sanoat xavfsizligi talablari | 2 |
| 11 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ekti xodimlariga qo'yiladigan sanoat xavfsizligi talablari | 2 |
| 12 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik | 2 |
| 13 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida avriyalarning oqibatlarini tugatish bo'yicha sanoat xavfsizligi talablari | 2 |
| 14 | Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati | 2 |
| 15 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida qo'llaniladigan texnika qurilmalarini sertifikatlashtirish. | 2 |
| 16 | Sanoat xavfsizligi sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash | 2 |
| 17 | Sanoat xavfsizligi ekspertizasi | 2 |
| 18 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish | 2 |
| 19 | Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazorati | 2 |
| 20 | Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi | 2 |
| 21 | Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yuz bergan holda zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni majburiy sug'urta qilish. | 2 |
| 22 | Sanoat xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik | 2 |
| | Jami | 44 |



Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor- o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**Laboratoriya mashg'ulotlari**

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:**

1. Xavflarning nomenklaturasi, taksonomiyasi va identifikatsiyasi
2. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini turlari
3. O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining "Xavfli ishlab chiqarish

ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori

**5.**Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini hisobga olish va davlat reestrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom.

6. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom.

7. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini baholash

8. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash

9. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari bo'yicha davlat reestrini yuritish tartibi

10. Sanoat xavfsizligi sohasini davlat tomonidan tartibga solish tartibi

11. Sanoat xavfsizligini amalga oshiruvchi vaqolatli organ va uning tuzilmasi, funksiyalari,huquqlari va javobgarligi

7. Sanoat xavfsizligi talablari

8.Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini loyihalashga qo'yilgan talablar

9. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish va foydalanishga qabul qilib olishga oid sanoat xavfsizligi talablari

10. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanishda sanoat xavfsizligi talablari

11. Xavfli ishlab chiqarish ob'ekti xodimlariga qo'yiladigan sanoat xavfsizligi talablari

12. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik talablari

13. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida avriyalarning oqibatlarini tugatish bo'yicha sanoat xavfsizligi talablari

14.. Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati

15.Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yuz bergan holda zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni majburiy sug'urta qilish

16. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida qo'llaniladigan texnika qurilmalarini sertifikatlashtirish.

17. Sanoat xavfsizligi sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash

17. Sanoat xavfsizligi ekspertizasi

18. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish

19. Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazorati

20. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi

21. Sanoat deklaratsiyasida "Vaziyat rejalari" va "axborot varag'i" tarkibi

22-mavzu. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariya yuz bergan holda zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni majburiy sug'urta qilish.

I.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.



## VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish ( test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talalabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

**Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

*YAkuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.*

**Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talalabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.**

## VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar

Raximov O.D., Yuldoshev O'.R., Murodov M.O. Mehnatni muhofaza qilish. Aloqachi" nashriyoti, 2018. -260b.

2. Psixologiya bezopasnosti: ucheb. posobiye dlya akademicheskogo bakalavriata. //A. I. Donsov, Yu. P. Zinchenko, O. Yu. Zotova, Ye. B. Perelыgina. M. : Izdatelstvo Yurayt, 2015. — 276 s.

3.Raximov O.D., Siddiqov I.X., Murodov M.O. Hayot faoliyat xavfsizligi. Ekologiya. Darslik. //Toshkent: "Aloqachi" nashriyoti, 2017.-310b

4.Brenner C. An elementary textbook of psychoanalysis. – New York: International Universities Press, 1973.

5. DSM-III: Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (Third Edition): American Psychiatric Association, 1980.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori
5. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini hisobga olish va davlat reestrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom.

**Internet saytlar:**

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zR Adliya vazirligi sayti.
3. www.ziyonet.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
4. www.bilim.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
5. www.mintrud.uz – O'zR Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.

hfxraximov.uz – Hayot faoliyat xavfsizligi fanidan shaxsiy veb-sayt (prof.O.D.Raximov sayti)

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (bayonnoma №- 2022 yil ___ ____)

**Fan/modul uchun ma'sullar:**

R.Eshonqulov - Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Eekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi mudiri, professor, texnika fanlari doktori.

O.D.Raximov - Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi professori, texnika fanlari doktori, texnika fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:**

X.X. Razzakov – Samarqand davlat arxitektura va qurilish institui "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM).

N.Maxmatqulov - Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.